

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

**REYIMBAYEV SHERZOD BOZORBOYEVICH**

**NOCHIZIQLI MUHITLARDA QUYI TARTIBLI NOCHIZIQLILIK VA  
YUQORI TARTIBLI GARMONIKALAR GENERATSIYASI**

**01.04.11- Lazer fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Urganch– 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктор философии (PhD) физико-  
математических наук**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
physical and mathematical sciences**

**Reyimbayev Sherzod Bozorboyevich**

Nochiziqli muhitlarda quyi tartibli nochiziqlilik va yuqori tartibli  
garmonikalar generatsiyasi..... 3

**Рейимбаев Шерзод Базарбаевич**

Нелинейностей низшего порядка и генерация высших гармоник в  
нелинейных средах ..... 21

**Reyimbayev Sherzod Bozorboyevich**

Low-order nonlinearity and high harmonic generation in nonlinear  
media..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

**REYIMBAYEV SHERZOD BOZORBOYEVICH**

**NOCHIZIQLI MUHITLARDA QUYI TARTIBLI NOCHIZIQLILIK VA  
YUQORI TARTIBLI GARMONIKALAR GENERATSIYASI**

**01.04.11- Lazer fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Urganch– 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.3.PhD/FM1162 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.urdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Boltayev Ganjaboy Sapayevich,**  
fizika-matematika fanlari doktori

**Rasmiy opponentlar:** **Yusupov Javdat Bakidjanovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor  
**Matnazarov Anvar Rustamovich**  
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **O‘zbekiston Milliy Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «24» iyun soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-66-11; faks: (99862) 224-67-00.)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~808~~ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-66-11; faks: (99862) 224-67-00.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «13» iyun kuni tarqatildi.  
(2025 yil «13» 06 dagi 8 -raqamli reestr bayonnomasi).



**U.O. Kutliev,**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**K.R. Yakubov,**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**U.K. Sapaev,**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari  
doktori, dotsent

## **KIRISH (Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda optoelektronika, biofotonika va kvant optikasi sohalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda, lazer qurilmalari ishlab chiqarishda va nanoo'lchamli strukturalarni sintez qilishda nohiziqli optik effektlarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida, nanoo'lchamli strukturalarda kvant o'lchamli effektlarga asoslangan nohiziqli optik xususiyatlarini o'rganish asosida yangi optik materiallar va ilg'or texnologik qurilmalarni yaratish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etishni taqazo qiladi. Shu jihatdan, nanoo'lchamli strukturalarning o'ziga xos xususiyatlari yaratilgan qurilmalarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda nanoo'lchamli materiallarning nohiziqli optik xususiyatlarini o'rganishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, yangi turdagi yuqori foton energiyali kogerent yorug'lik manbalarini yaratishga va ular yordamida ixcham mikrofotolitografiya mashinalarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada nanozarralarning kvant o'lchamli optik xususiyatlarini boshqarish orqali kogerent manbalari generatsiyasi uchun yuqori samaradorliklarga erishish natijasida yuqori aniqlikdagi tasvirga oluvchi tizimlarini yaratish, biotexnologiya va kvant hisoblash kabi sohalarda innovatsion yechimlarni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va resurs sarfini kamaytirish muhim strategik yo'nalish sifatida belgilangan va bu vazifalarni amalga oshirishda keng qamrovli chora-tadbirlar olib borilgan va muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida, jumladan «...yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimini ta'minlash orqali innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish»<sup>1</sup> vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, nanoo'lchamli muhitlarda quyi tartibli nohiziqilik va yuqori tartibli garmonikalar generatsiyasi jarayonlarini o'rganish orqali muhim ilmiy natijalarga erishish va yangi usullarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- fevraldagi PF-60-son farmoni, 2021-yil 2-martdagi PQ-5011-sonli qarori va 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli qarori kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, fizika sohasidagi ta'lim sifatini yaxshilash va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish kabi vazifalarni belgilaydi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi<sup>2</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 – 2026 -yillarga mo'ljallangan Yangi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2022 yildagi PF-165-son

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020 yildagi PF-6097-son

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi<sup>3</sup> farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishga oid II-ustuvor yo‘nalishi - “Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik” sohalari bo‘yicha amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi vaqtda dissertatsiya tadqiqoti yo‘nalishidagi bir qator dolzarb muammolar hal qilindi, jumladan, xitoylik (Hong-Wei Zang, He-Long Li, Yue Su, Yao Fu, Meng-Yao Hou, Andrius Baltuska, Kaoru Yamanouchi, and Huailiang Xu), Meksikalik olimlar (P. Zaca-Moran, R. Ramos-Garcia, J. G. Ortega-Mendoza, F. Chavez, G. F. Perez-Sanchez and C. Felipe), O‘zbekiston va Yaponiya olimlari (R. A. Ganeev, M. Baba, M. Suzuki, S. Yoneya, va H. Kuroda), Hindiston olimlari (H. Singhal, V. Arora, B. S. Rao, P. A. Naik, U. Chakravarty, R. A. Khan, va P. D. Gupta) va O‘zbekiston olimlari (G.S. Boltayev va boshqalar) tamonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Biroq, lazer ablyatsiya yordamida olingan rux (Zn) va rux selenid (ZnSe) nanozarrachalarning quyi va yuqori tartibli noxiziqli optik xususiyatlari tizimli ravishda o‘rganilmagan. Shuningdek, turli muhitlar sirtlarida hosil qilingan lazer-plazmasida generatsiyalangan 8–40 nm to‘lqin uzunligi diapazonidagi garmonikalar samaradorligi fazaviy moslashuv shartlari buzilgani sababli past chiqqan.

Shunday qilib, muommaning dolzarbligi va yetarlicha o‘rganilmaganligi inobatga olgan holda, muallif uglerod tarkibli yonish alangalari va plazma holatidagi muhitlarda quyi va yuqori tartibli noxiziqli jarayonlarni tadqiq qilish yo‘nalishini tanlashga asos bo‘ldi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishida keltirilgan tadqiqotlar davlat ilmiy-texnik dasturlar doirasida F2-FA-F160 “Chirpirlangan lazer impulslarining optik parametrik kuchaytirilishi va femtosekundli nurlanishning moddalar bilan noxiziqli o‘zaro ta’siri tadqiqotini o‘rganish” (2012-2016), OT-F2-49 “Subpetavatt quvvatli femtosekund lazer nurlanish generatsiyasini kuchaytirish usullarini yaratish va ularning moddalar bilan o‘zaro tasirini tadqiq qilish” (2017-2020) va MRU-FA-21/2017 “Keng klasterli va sirt yaqinidagi femtosekundli lazer plazmasida garmonika generatsiyasi va rentgen nurlanishi” (2017-2019) loyihalarida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** plazma holatidagi va uglerod tarkibli muhitlarning noxiziqli optik parametrlarini aniqlash va yuzaga keluvchi noxiziqli jarayonlar qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

uglerod tarkibli muhitlarda noxiziqli optik jarayonlarni va uchinchi garmonikaning generatsiya mexanizmlarini o‘rganish;

lazer nurlanish yordamida suyuq fazada Zn va ZnSe nishonlarini lazerli ablatsiya qilishda ularning nanozarrachalari shakllanishini tahlil qilish;

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

nanoo'lchamli Zn va ZnSe zarrachalarining nohiziqli optik xossalarini Z-skanerlash usuli yordamida o'rganish, hamda nohiziqli yutilish va muhitning nohiziqli sindirish ko'rsatkichlarining qiymatlarini aniqlash;

lazer nurlanishi yordamida hosil qilingan Zn va ZnSe nanozarrachalari mavjud bo'lgan plazma holatidagi muhitlarda infraqizil lazer nurlanishining yuqori tartibli garmonikalar generatsiyasini tajribada o'rganish;

plazma holatidagi muhitlarda generatsiyalanuvchi yuqori tartibli garmonikalar samaradorligini oshirish uchun plazma muhitning o'lchamlari va parametrlarini boshqarish usulini rivojlantirish.

**Tadqiqotning ob'ekti** – Zn va ZnSe nanozarrachalari, tarkibida uglerod bo'lgan yonuvchi moddalar, turli materiallarni lazer ablyatsiya qilish natijasida olingan plazma muhitlari.

**Tadqiqotning predmeti** Zn va ZnSe nanozarrachalarining nohiziqli optik xususiyatlari, uglerod asosli muhitlarda yuzaga keluvchi nohiziqli jarayonlar, shuningdek, lazer-plazma sharoitida yuqori tartibli optik garmonikalar generatsiyasining mexanizmlari va ularning samaradorligini oshirish usullari.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida lazer ablyatsiya usuli, Z-skanerlash usuli, atom kuch mikroskopiyasi, lazer nurlanishining garmonikasini hosil qilish, ekstremal ultrabinafsha spektral tahlili, optik spektroskopiya va elektron mikroskopiya usullaridan foydalangan holda tadqiq qilingan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk marotaba uglerod tarkibli nohiziqli muhitlarda qisqa lazer nurlanishining uchinchi garmonikasi samarali generatsiyasi uchun nohiziqli mexanizmlar o'rganilgan va uglerod nanozarrachalaridagi kuchli nohiziqli effektlar aniqlangan;

ilk marotaba suyuq muhitlarda lazer ablyatsiyasi jarayonida Zn va ZnSe nanozarrachalarining shakllanishi tahlil qilingan va o'lchamlari 100 va 200 nm bo'lgan sferik nanozarrachalar eritmasi olingan;

muhitlarni z-skanerlash usuli yordamida Zn va ZnSe nanozarrachalardan tashkil topgan eritmalarning nohiziqli optik xossalari o'rganilib, eritmalarning sindirish ko'rsatkichi va yutilish koeffisientlari nanoo'lchamli zarrachalarda yuzaga keluvchi kuchli kvant o'lchamli nohiziqli effektlar xisobiga ortishi kuzatilgan va nohiziqli parametrlarning qiymatlari o'lchangan;

ilk marotaba Zn va ZnSe nanozarrachalaridan tashkil topgan plazma muhitlarida o'ta qisqa infraqizil lazer nurlanishining yuqori tartibli garmonika generatsiyalari tajribada o'rganilgan va yuqori foton energiyali, xususan energiyasi 32 eV va 40 eV bo'lgan kogerent nurlanish generatsiyalari kuzatilgan;

ilk marotaba plazma holatidagi muhitlarda generatsiyalanuvchi yuqori energiyali fotonlarning kogerent nurlanish manbalarining energetik samaradorliklarini oshirish imkonini beruvchi usuli rivojlantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Uglerod nanozarrachalaridan tarkib topgan nohiziqli muhitlarda uchinchi garmonika generatsiyasi samaradorliklarining sezilarli darajada oshirish imkoniyati ko'rsatilgan.

Sham alangasidan olingan uglerod nanozarrachalarining supergidrofobik

xususiyatlari amaliy qoplama materiallari uchun yangi imkoniyatlar yaratgan.

Zn va ZnSe nanozarralaridan tashkil topgan plazma muhitlarida yuqori tartibli garmonika generatsiyalarining samaradorligini oshirish imkoniyat o'zaro tasirlashuvchi nurlanishlarining fazalarini kvazi moshlashtirish orqali erishish mumkinligi ko'rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan eksperimental usullar yuqori darajadagi aniqlik va takrorlanuvchanlikka ega bo'lib, natijalar ilgari chop etilgan ilmiy maqolalar va tadqiqotlar bilan taqqoslanib ularga mosligi va asosiy nazariy tamoyillarga muvofiqligi bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Zn va ZnSe nanozarrachalari eritmalarini sintez qilishda lazer nurlanishi parametrlarini va eritmaning fizik xossalarini taminlashga qaratilgan mexanizmlarining asoslanganligi hamda rivojlantirilgan usullarining matematik asoslari va boshqa noxiziqli jarayonlarini tadqiq qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tajribalarda olingan Zn va ZnSe nanozarralaridan quvvatli lazer nurlanishi optik cheklovchi qurilmalarini yaratishda foydalanish mumkinligi va noxiziqli optik qurilmalarining sifatining yaxshilanishi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Zn va ZnSe nanozarrachalarining sintez qilish va kogerent nurlanish manbalari yaratish bo'yicha olingan natijalar asosida:

2018-2019 yillar davomida Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan YOOT-Ftex-2018-161, "Ikki o'zakli nurlotolada keng polosali nurlanishni qayta o'rganish va zichlashgan chastotali optik kanallarni spektral ajratilish" mavzusidagi amaliy tadqiqot doirasida nurlotoladagi noxiziqli optik jarayonlarning chuqur tahlili, chastotalarni almashtirish jarayonining optimallashtirilgan modellarini ishlab chiqish va yuqori tezlikdagi optik signallarni uzatish texnologiyalarini takomillashtirish maqsadida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti 2024-yil 11- sentabrdagi 01/914-1715-son ma'lumotnomasi). Natijada, ikki o'zakli nurlotolalarda keng polosali nurlanishning parallel spektral kanallar orqali uzatish imkoniyatlarini kengaytirish, chastota almashtirish jarayonlarining samaradorligini oshirish va optik signallarni yuqori aniq ajratish texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

turli optik muhitlarda aniqlangan quyi tartibli noxiziqlilik va yuqori tartibli garmonikalar generatsiyasi bo'yicha olingan tajriba natijalarini Birlashgan Arab Amirliklari Sharja shahridagi Amerika universiteti (American University of Sharjah, UAE) tadqiqot markazida olib borilgan FRG21-M-S34, FRG19-L-S61 va FRG-C-S56 ilmiy loyihalarida qo'llanilgan. Natijada, lazer nurlanishining metal nanozarralaridan tashkil topgan lazer-plazmasi bilan o'zaro ta'siri jarayonida to'lqin uzunliklari 15-100 nm bolgan spektral sohalarda yuqori tartibli garmonikalar asosida samarador kogerent nurlanish manbalarini yaratish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotlarning asosiy natijalari 11

ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan 3 ta xalqaro va 8 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar 15 ta ilmiy ishda yoritilgan bo'lib, ulardan 4 tasi ilmiy maqola. Shundan 4 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan chet el va mahalliy ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 sahifani tashkil etadi va asosiy matn, shu jumladan 21 ta rasm hamda 1 ta jadvalni o'z ichiga oladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot ob'ekti, predmeti va usullari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqotning ishonchliligi hamda tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi va dissertatsiya tuzilishi haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Nanozarralar va plazmalar yordamida garmonikalar generatsiyasini hosil qilishning zamonaviy usullari bo'yicha adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida nohiziqli optik jarayonlar va yuqori tartibli garmonikalar generatsiyasi samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy usullar tahlil qilindi. Xususan, yuqori intensivlikdagi lazer nurlanishining muhit bilan o'zaro ta'sirida nohiziqli sindirish ko'rsatgichi, ikki fotonli yutilish, to'yinuvchi va teskari to'yinuvchi yutilish kabi nohiziqli hodisalarning roli hamda ushbu parametrlarning generatsiyalanayotgan garmonikalar amplitudasi va fazaviy moslashuv sharoitlariga ta'siri o'rganildi. Bundan tashqari, lazer-plazma parametrlarini nishon sirtida optimallashtirish, ionlanish jarayonlarini boshqarish va erkin elektronlarning fazoviy taqsimotini nazorat qilish orqali kogerent rentgen nurlanish hosil qilish samaradorligiga ta'siri tahlil qilindi. Bobning oxirida adabiyotlar sharhiga asoslanib, ushbu dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari belgilandi.

Dissertatsiya ishining **“Quyi tartibli nohiziqli jarayonlar va yuqori tartibli garmonikalar generatsiyasi hosil qilish metodikasi, hamda eksperimental qurilmalar tavsifi”** deb nomlangan ikkinchi bobida turli muhitlarda olib borilgan eksperimental tadqiqotlarning metodologik asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Ushbu bobda, eng avvalo, uglerod tutuvchi yonish alangalarida, xususan sham va etanol alangalarida, uchinchi tartibli garmonika generatsiyasini havoda hosil qilishga mo'ljallangan optik sxema va bu jarayonda paydo bo'ladigan nanozarrachalarni aniqlashda qo'llanilgan usullari keltirilgan. Shuningdek, yuqori tartibli garmonikalar generatsiyasini kompleks tarzda o'rganish maqsadida Zn va ZnSe kabi metall va yarim o'tkazgich moddalardan femtosekund lazer ablatsiyasi usuli yordamida nanozarrachalarni sintez qilishga oid optik sxema, hosil bo'lgan zarrachalarning morfologik va spektral tavsiflarini aniqlash natijalari, shuningdek

ushbu tavsiflarni qayd qilish usullari batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, lazer ablatsiyasi orqali tayyorlangan kolloid suspenziyaning Z-skanerlash texnikasi yordamida o'ljangan quyi tartibli nochiziqli optik xususiyatlarini aniqlashga mo'ljallangan eksperimental qurilma elementlari va ularning ishlash prinsipi keltirilgan. Shuningdek, ushbu bobda nanozarrachalardan tashkil topgan tagliklarni hosil qilish usullari hamda ushbu tagliklar va qattiq jism sirtida hosil bo'lgan plazmalarda ekstremal ultrabinafsha sohasida yuqori tartibli garmonikalarni generatsiyalash va qayd etish uchun qo'llanilgan spektrometning sxemasi keltirilgan. Ushbu spektrometr oltin bilan qoplangan silindrsimon ko'zgu, yo'naltiruvchi difraksion panjara, fosforli ekran bilan integratsiyalangan mikrokanalli plastinka hamda CCD kamera elementlaridan tashkil topgan. Bundan tashqari, qattiq jism sirtida ko'p tirqishli niqob yordamida davriy plazma tuzilmalarini hosil qilish va ushbu modulyatsiyalangan muhit orqali fazaviy moslashuvni yaxshilab, yuqori samaradorlikdagi garmonika generatsiyasiga erishish metodikasi tahlil qilingan. Tavsiflangan metodlar va eksperimental qurilmalar yuqori tartibli garmonikalar generatsiyasi jarayonini optimallashtirish, fazoviy-taqsimot xususiyatlarini baholash va nurlanish intensivligini oshirish imkonini berdi.


Dissertatsiya ishining **“Yonish alangalarida va lazer ablyatsiyasi yordamida sintez qilingan nanozarrachalarda quyi tartibli nochiziqlilik”** deb atalgan uchinchi bobida yonish alangalarida va lazer ablyatsiyasi yordamida hosil qilingan nanozarrachalarning quyi tartibli nochiziqlilik xususiyatlari o'rganildi. To'lqin uzunligi 1064 nm, vaqt davomiyligi 28 ps bo'lgan lazer nurlanishining ta'siri ostida sham va etanol alangalarida uchinchi garmonika generatsiyasi bo'yicha olingan tajribaviy natijalar tahlil qilindi. 1-rasmda havoda (1), sham (2) va etanol (3) alangalarida hosil bo'lgan uchinchi garmonika spektrlari keltirilgan.



**1-rasm. Havoda (1), sham alangasida (2) va etanol alangasida (3) uchinchi garmonika generatsiyasi spektrlari. Barcha holatlar 1064 nm bo'lgan lazer nurlanishining energiyasi 3,6 mJ da olindi. Eksperimental sxemasi: fokuslash linzalari (SL), filtr tizimi (FT), HR4000 tolali spektrometr.**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, havoda hosil bo'lgan uchinchi garmonika samaradorligi ( $1,1 \times 10^{-5}$ ) bilan solishtirilganda, samaradorlik sham alangasida 12 marta ( $1,2 \times 10^{-4}$ ) va etanol alangasida 24 marta ( $2,4 \times 10^{-4}$ ) oshgan. Buning natijasida, havo komponentlarining alangada hosil qilinayotgan uchinchi garmonika samaradorligida hissasi past bo'lganligi sababli inobatga olinmadi. Alangada garmonika samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida


alanga ichida hosil bo'layotgan uglerod nanozarralari bilan baholandi. Shu bilan birgalikda, uchinchi garmonika generatsiyasi samaradorligining zondlash impulsi energiyasiga bog'liqligi jarayonning cheklovchi mexanizmlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. 2-rasmda havo, sham alangasi va etanol alangasidagi impulslarning turli energiyalarida uchinchi garmonika generatsiyasi intensivligining bog'liqligi ko'rsatilgan.



2-rasm: a) havo, b) sham va c) etanol alangasida hosil bo'lgan uchinchi garmonika intensivligining damlash energiyasiga bog'liqligi.


Tadqiqot natijalari uchala muhitda ham uchinchi garmonika generatsiyasi samaradorligining to'yinish holatini ko'rsatdi, bu esa zondlash impulslarining yuqori intensivligida erkin elektronlar konsentratsiyasining ortishi bilan izohlanadi. Sham va etanol alangasida lazer energiyasining oshishi bilan uchinchi garmonika generatsiyasi intensivligining og'ishidagi o'zgarishlar esa nochiziqli Kerr effekti ta'sirida yuzaga keladigan faza siljishi bilan tushuntiriladi.

Linzaning fokus tekisligida namunalarning joylashuvi va alangada hosil bo'layotgan uglerod nanozarralari mavjudligini tahlil qilish uchun z va y o'qlari bo'ylab skanerlash usuli qo'llanildi. 3.a-rasm etanol va sham alangalarida uchinchi




3-rasm. a) Linzalarning fokus tekisligiga nisbatan etanol alangasida uchinchi garmonika intensivligining o'zgarishi. b) Garmonika samaradorligining etanol va sham alangasi manbasida y masofaga bog'liqligi.

garmonika generatsiyasi samaradorligining lazer fokusining holatiga va alangadagi zarrachalar shakllanishiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu yerda z o‘qi lazer nurlanishining optik yo‘li bo‘lib (yonish alangasiga perpendikulyar yo‘nalishda), y o‘qi esa (3.b-rasm) pilikdan boshlab alangaga parallel yo‘nalishda tajribalar amalga oshirildi. Har ikkala o‘lchovda ham nanozarralarning konsentratsiyasi alanga markazida yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu natija, adabiyotlarda qayd etilganidek, uglerod tutuvchi alangada, ya’ni harorat eng yuqori bo‘lgan nuqtada nanozarralar shakllanishini tasdiqlaydi. Sham alangasida y o‘qi bo‘ylab monoton kamayishning etanol alangasiga nisbatan kattaroqligi, alangada haroratning pasayishi natijasida hosil bo‘lgan nanozarralarning bir-biri bilan birikib agregat holatiga o‘tishi va ularning konsentratsiyasining kamayishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, yonish alangalarida bir xil sharoitda olingan uchinchi garmonikaning fazoviy taqsimotida o‘zgarishlar (4.b-rasm) sham alangasida yirik nanozarrachalar paydo bo‘lishini tasdiqlaydi. Bu holat alangada nanozarrachalar shakllanishi va o‘shining optik xususiyatlarga ta’sirini ko‘rsatadi.



4-rasm. Energiyasi 3,5 mJga teng bo‘lgan damlash impulslari yordamida (a) havoda, (b) sham va (c) etanol alangasida hosil bo‘lgan uchinchi garmonika generatsiyasining fazoviy taqsimoti.

Shu bilan birgalikda, nanozarralarning mavjudligini skanerlovchi elektron mikroskopi (SEM), dispersli rentgen spektroskopiyasi (EDS) va atom-kuch mikroskopi (AKM) orqali tekshirish maqsadida shisha plastinka alanga ustida 1-10 minut davomida alangadan 50 mm balanlikda tutib turildi (5-rasm).




5-rasm. (a) uglerod tarkibli yupqa plyonkaning SEM tasviri va uning (b) tarkibiy EDS spektri, va (c) yupqa plyonkaning sirtiy AKM tasvirlari

Ushbu tajribada shisha sirtida hosil bo‘lgan qoplamalarning SEM, EDS va AKM tasvirlari nano va mikro tuzilmalar mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar yonish alangasida o‘tkazilgan tadqiqotlarni tasdiqlaydi, chunki alanganing markaziy qismida harorat yuqori bo‘lib, bu hududda nanozarrachalar hosil bo‘ladi.

Alanganing chekka qismlarida va balanligi bo'yicha esa harorat pasayishi natijasida ushbu nanozarrachalar yirik nanozarrachalarga birlashadi yoki agregatlar hosil qiladi. Ayniqsa, sham alangasida kuzatilgan SEM tasvirlari bu jarayonning yaqqol dalili sifatida xizmat qiladi (5.a-rasm). Uchinchi garmonika generatsiyasi bilan olib borilgan tajribalar ham alanga bilan olib borilgan tadqiqotlarni tasdiqlaydi. Uglarod nanozarrachalarini tashkil topgan alanga muhiti bilan yuqori tartibli garmonika generatsiyasini olish uchun albatta vakuum muhitini hosil qilish talab etiladi, ammo alanga bilan bunday shart-sharoitlarni yaratish imkoni yo'q. Shu sababli, yuqori tartibli noxiziqli jarayonlarda o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan metall va yarim o'tkazgich materiallaridan lazer ablyatsiyasi usuli bilan olingan nanozarrachalar bilan tadqiqotni davom ettirish zarur. Vaqt davomiyligi femtosekund bo'lgan lazer ablyatsiyasi yordamida suyuq faza (etanol, suv va hokazo) ichida nanozarrachalar sintezi samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu ishda, lazer ablyatsiyasi jarayonida impuls davomiyligi 40 fs, markaziy to'lqin uzunligi 1030 nm, takrorlanish chastotasi 50 kHz ega bo'lgan lazer nurlanishi yordamida amalga oshirildi. Etanol suyuqligida joylashtirilgan, o'lchami  $3 \times 3 \text{ sm}^2$  bo'lgan Zn va ZnSe nishonlariga fokuslangan lazer nurlanishi nishon sirtida 50 mm/s tezlikda skanerlandi. Ablyatsiya jarayoni 5 minut davomida olib borildi. Bunda ablyatsiya jarayonida lazer impulslarining o'rtacha quvvati 5 W bo'lib, etanol ichidagi nishon sirtiga fokuslangan nurlanishning energiya zichligi esa  $13 \text{ J/sm}^2$  ni tashkil etdi. Yuqori intensivlikdagi lazer impulslari nishon sirtida plazma ablyatsiyaga olib keladi va bu issiq plazma buluti suyuqlik ichida sovib, turli shakl va o'lchamlardagi nanozarrachalar shaklida parchalanadi. Bu jarayonda nishon ustidagi taxminan 5 mm qalinlikdagi suyuqlik qatlami plazmaning tarqalishini nazorat qiladi, natijada nanozarrachalar etanol hajmida sochilib, kolloid suspenziya hosil bo'ladi.

6-rasmda Zn va ZnSe nanozarrachalaridan iborat kolloid suspenziyalarining optik zichligi tasvirlari aks ettirilgan. Kolloid suspenziyalarda yirik nanozarrachalar mavjudligi sababli yutilish spektrlarida sirt plazmon rezonansi maksimumlari aniqlanmadi. Biroq, har ikkala suspenziyaning yutilish spektrida 900 nm atrofida maksimum kuzatildi. Bu ehtimol etanolning ablyatsiya jarayonida oz miqdorda



6-rasm. Zn va ZnSe nanozarrachalarining yutilish spektrlari.

ifloslanishi bilan bog'liq bo'lib, Z-skannerlash metodida qo'llanilgan lazer impulslarining to'lqin uzunliklari (1030 nm va 515 nm) ushbu maksimumdan uzoq bo'lganligi sababli, bu maksimum nanozarrachalar suspenziyalarining noxiziqli optik parametrlariga ta'sir ko'rsatmaydi. Shuningdek, sintez qilingan Zn va ZnSe nanozarrachalarining o'lchamlari va morfologiyasi mikroskopik usullar – SEM va AFM

yordamida o'rganildi. SEM tasvirlari Zn nanozarrachalarining o'rtacha diametri taxminan 100 nm atrofida ekanligini, ZnSe nanozarrachalarining esa o'rtacha diametri 200 nm ga yetishini ko'rsatdi. Bundan tashqari, zarrachalar shakli asosan sferik va ellipsoid bo'lib, ba'zi hollarda ular o'zaro agregatsiyalanib yirik aglomeratlar hosil qilishi kuzatildi. O'lcham va shakllarning bunday farqi lazer impulsi parametrlari (intensivlik, impuls davomiyligi) hamda materialning fizik xossalariga (erish harorati, issiqlik o'tkazuvchanligi) bevosita bog'liq.

Zn va ZnSe nanozarrachalarning kolloid suspenziyalari 1 mm qalinlikdagi kvarts idishga joylashtirildi va Z-skanerlash texnikasi yordamida ularning quyi tartibli nochiziqli optik xususiyatlari tadqiq etildi. Tajribalar asosiy lazer impulsi (1030 nm) va uning ikkinchi garmonikasidan (515 nm) foydalangan holda amalga oshirildi. Z-skanerlash jarayonida suspenziyalik kvarts idishlar z o'qi bo'ylab harakatlantirilib, fokus nuqtasi atrofida lazer nurlanishining intensivligi o'zgarishi bilan bog'liq holda nanozarrachalar bilan o'zaro ta'siri tahlil qilindi va ularning nochiziqli optik parametrlari aniqlandi. 1-jadvalda Z-skanerlash natijasida aniqlangan nochiziqli sindirish ko'rsatkichi ( $\gamma$ ) va ikki fotonli yutilish koeffitsienti ( $\beta$ ) kabi nochiziqli optik parametrlar keltirilgan. Mazkur natijalar 50 kHz chastotali yuqori takrorlanish tezligiga ega lazer nurlanishi ta'sirida manfiy nochiziqli sindirish ko'rsatkichi ( $\gamma < 0$ ) aniqlandi.

### 1-jadval.

**Etanolda ablyatsiya qilingan Zn va ZnSe nanozarralari suspenziyalarida nochiziqli sindirish ko'rsatkichlari va ikki fotonli yutilish koeffitsientlari.**


Namuna	$\lambda=1030$ nm		$\lambda=515$ nm	
	$\gamma$ ( $sm^2 \cdot W^{-1}$ )	$\beta$ ( $sm \cdot W^{-1}$ )	$\gamma$ ( $sm^2 \cdot W^{-1}$ )	$\beta$ ( $sm \cdot W^{-1}$ )
Zn nanozarralari	$-1,4 \times 10^{-13}$	$2,7 \times 10^{-11}$	$-1,7 \times 10^{-14}$	$1,0 \times 10^{-11}$
ZnSe Nanozarralari	$-4,9 \times 10^{-14}$	$0,5 \times 10^{-11}$	$-2,4 \times 10^{-14}$	$2,1 \times 10^{-11}$

Ushbu effekt faqatgina sindirish ko'rsatkichining intensivlikka bog'liq o'zgarishi bo'lmasdan, balki issiqlik ta'sirida termo-optik effektlarning kuchayishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, Zn nanozarrachalarining nochiziqli sindirish ko'rsatkichi to'liq uzunligi 1030 nm lazer nurlanishida ZnSe nanozarrachalarining sindirish ko'rsatkichiga nisbatan taxminan 2,5 baravar farq qildi. Shuningdek, Zn nanozarrachalari uchun ikki fotonli yutilish koeffitsienti ZnSe nanozarrachalariga nisbatan 5 baravar katta ekanligi aniqlandi. Ushbu farqlar asosan Zn nanozarrachalarining kichikroq o'lchamlari bilan izohlanadi, chunki kichik o'lchamli zarrachalar kattaroq o'lchamli zarrachalarga nisbatan yuqoriroq nochiziqli optik parametrlarni namoyish etadi. Ikkinchi garmonika (515 nm) bilan olib borilgan Z-skanerlash natijalarida Zn va ZnSe nanozarrachalarining nochiziqli sindirish ko'rsatkichlarining qiymati deyarli farq qilmasligini, biroq ZnSe nanozarrachalarining ikki fotonli yutilish koeffitsienti Zn nanozarrachalariga nisbatan 2 baravar kattaroq ekanligi kuzatildi. Aniqlangan Zn va ZnSe nanozarrachalarining manfiy nochiziqli sindirish ko'rsatkichlari ushbu nanozarrachalar asosida shakllangan plazmada dispersiya sharoitlarini o'zgartirib, fazaviy moslashishni optimallashtirishi mumkin.

Dissertatsiya ishining “**Nanozarralar va modulyatsiyalangan plazmada yuqori tartibli garmonikalarni hosil qilish va optimallashtirish**” deb atalgan to‘rtinchi bobida bitta (1030 nm) va ikkita zondlash (1030 nm + 515 nm) nurlanishlar kombinatsiyasi yordamida Zn va ZnSe nanozarrachalari asosida shakllangan plazmada yuqori tartibli garmonikalarning hosil bo‘lish jarayoni hamda ularning tahlili keltirildi. Bundan tashqari, turli materiallar sirtida lazer ablyatsiyasi orqali shakllangan plazma alangasining bo‘laklari orasidagi masofa va ularning o‘lchamlarini o‘zgartirishga imkon beradigan texnikalar namoyish etildi.

Zn va ZnSe nanozarrachalarining suspenziyasi yuqori tozalikdagi taglikka tomchi usulida qoplandi va 60°C haroratda ehtiyotkorlik bilan quritildi. Ushbu usul nanozarrachalarning sirt bo‘ylab bir tekis taqsimlanishini ta’minladi. Jarayon bir necha marta takrorlangandan so‘ng, 0,2 – 0,8 mm qalinlikdagi qatlam hosil qilindi. Tayyorlangan taglik yuqori tartibli garmonikalar generatsiyasini o‘rganish maqsadida  $3 \times 10^{-6}$  mbar bosimli vakuum kamerasiga joylashtirildi. Bu tagliklar sirtida plazma hosil qilish maqsadida vaqt davomiyligi 235 fs, to‘lqin uzunligi 1030 nm bo‘lgan qizdiruvchi lazer nurlanishidan foydalanildi. Ushbu lazer nurlanishi 200 mm fokusli linza orqali nishon sirtida  $10^{10} - 10^{11}$  W/sm<sup>2</sup> intensivlik diapazonda fokuslandi. Zondlash impulslari hosil bo‘lgan plazmaga nishon manbasi tekisligiga parallel ravishda yo‘naltirildi va ularning maksimal intensivligi  $I \approx (1 - 3) \times 10^{14}$  W/sm<sup>2</sup> oralig‘ida tanlandi. Bunday tanlangan qizdiruvchi va zondlash impulslarining intensivliklari kuchsiz ionlangan, nanozarrachalar konsentratsiyasi ko‘proq bo‘lgan optimal plazma hosil qilishni ta’minlaydi.

7.a-rasmda to‘lqin uzunligi 1030 nm bo‘lgan zondlash nurlanishining Zn va ZnSe nanozarrachalaridan shakllangan plazmalar bilan o‘zaro ta’sirida hosil bo‘lgan yuqori tartibli garmonika spektrlari keltirilgan. Har ikkala plazma muhitida olingan spektrlardagi 17G-KFM belgisi kvazi-fazaviy moslashish sharoitida maksimal kuchaygan 17-garmonika intensivligini ifodalaydi.




7-rasm: a) asosiy lazer nurlanishida ( $\lambda = 1030$  nm) Zn (qizil to‘la chiziq) va ZnSe nanozarralaridan (ko‘k chiziq) shakllangan lazer plazmalarida hosil bo‘lgan yuqori tartibli garmonikalar generatsiyasi spektrlari; b) asosiy lazer nurlanishi va uning ikkinchi garmonikasi (1030 nm + 515 nm) kombinatsiyasi yordamida Zn (yuqori tasvir) va ZnSe (pastki tasvir) nanozarralaridan shakllangan plazmalarda hosil qilingan garmonikalar generatsiyasining ishlov berilmagan tasviri.

Zn va ZnSe nanozarrachalardan tashkil topgan plazmalardagi ushbu garmonikalar intensivligining nisbati 2,2 ga teng bo‘lib, bu natija Z-skanerlash usuli yordamida aniqlangan manfiy nochizikli sindirish ko‘rsatkichlari nisbati (2,5) bilan deyarli mos keladi. Ushbu o‘xshashlik, manfiy nochizikli sindirish ko‘rsatkichining o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan defokuslanish jarayonlari orqali yuqori tartibli garmonika generatsiyasi jarayonidagi dispersiya sharoitlarini o‘zgartirib, fazaviy moslashish optimallashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, rasmda Zn nanozarralarining lazer ablyatsiyasi natijasida hosil bo‘lgan plazma muhitida 11-garmonika rezonans kuchayishi kuzatildi. Ushbu rezonans mexanizmi Zn atomlarining ionlanishi natijasida shakllangan  $Zn^+$  yoki  $Zn^{2+}$  ionlarining elektron o‘tishlari bilan bog‘liq. Biroq, ZnSe nanozarralarida bunday rezonans kuchayishi kuzatilmagan. Buning sababi ZnSe nanokristall tuzilishga ega bo‘lib, unda Zn va Se atomlari kimyoviy bog‘lanish orqali mustahkam kristall panjara hosil qiladi. Natijada Zn atomining individual energiya darajalari o‘zgarib, u  $Zn^+$  ionlarida kuzatiladigan rezonans o‘tishlarni hosil qila olmaydi.

7.b-rasmda plazma muhitida to‘lqin uzunliklari mos ravishda 1030 nm va 515 nm bo‘lgan zondlovchi lazer impulslarining kombinatsiyasi asosida hosil bo‘lgan yuqori tartibli garmonikalarning dastlabki ishlov berilmagan tasvirlari keltirilgan. Ushbu spektrlarda qo‘llanilgan ikki to‘lqin uzunlikli (1030+515 nm) sxemada zondlovchi nurlarning vaqt bo‘yicha sinxronizatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribada qalinligi 0,1 mm bo‘lgan BBO kristali orqali ikkilamchi garmonika (515 nm) generatsiyasi amalga oshirilgan. Guruh tezligi dispersiyasi natijasida asosiy (1030 nm) va ikkinchi garmonika (515 nm) impulslar orasida 12 femtosekund vaqt kechikishi yuzaga kelgan. Mazkur kechikish ikkala impulsning plazma bilan bir vaqtda o‘zaro ta’sirlanishini buzib, natijada toq ( $2n+1$ ) va juft ( $2n$ ) tartibli garmonikalar hosil bo‘lishiga olib keladi. Bunday holat spektral simmetriyaning buzilishi bilan xarakterlanib, noan’anaviy spektral taqsimotga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, ikkita impulsning vaqt bo‘yicha moslashuvining yo‘qligi tufayli energiyaning garmonika tartiblari bo‘yicha notekis taqsimlanishi yuz beradi. Biroq, ikki to‘lqinli zondlashda 515 nm da Zn va ZnSe nanozarrachalarining manfiy nochizikli sindirish ko‘rsatkichlari kichik bo‘lganligi sababli, ushbu sharoitda kvazi-fazaviy moslashuv yuzaga kelmadi. Bu esa fazaviy moslashuv shartlarining buzilishiga olib kelib, yuqori tartibli juft sonli garmonikalar (masalan, H16, H20) intensivligining keskin pasayishiga sabab bo‘ldi. Aksincha, toq sonli garmonikalar (masalan, H9, H13, H17) yuqori intensivlikda generatsiyalangan bo‘lib, bu holat ikki to‘lqinli nurlanishning nochizikli muhit bilan to‘liq vaqt bo‘yicha sinxronlashmagan holda o‘zaro ta’sirlashuvi bilan izohlanadi. Shuningdek, impulslar orasidagi vaqt va fazaviy moslashuvlar buzilishi natijasida  $2(2n+1)$  tartibli garmonikalar  $4(n+1)$  tartiblilarga nisbatan yuqori intensivlikni namoyon qildi.

